TARIX

UDK: 377+32.01.303 DOI: 10.56292/SJFSU/vol28_iss5/a11

YANGI BILIMLARNI O‘ZLASHTIRISHDA TEZ O‘QISHNING AHAMIYATI

ВАЖНОСТЬ СКОРОЧТЕНИЯ В ПОЛУЧЕНИИ НОВЫХ ЗНАНИЙ

THE IMPORTANCE OF SPEED READING IN GETTING NEW KNOWLEDGE

Sulaymonov Qurbonali [1], Madaminov Dilshodjon[2]

[1]**Sulaymonov Qurbonali** – Farg‘ona davlat universiteti dotsenti, t.f.n.
[2]**Madaminov Dilshodjon** – Farg‘ona davlat universiteti magistranti.

Annotatsiya

Inson doimo yangilikka intilib keladi va yangiliklarni bilimi orqali yaratadi. Yangi bilimlarni egallashning eng asosiy va samarali usuli esa bu o‘qish hisoblanadi. Lekin o‘qishning siz bilan bizga ma’lum bo‘lmagan usullari ham borligidan xabaringiz bormi? Albatta, bor. Lekin afsuski, ko‘pchilik bu haqda bilmaydi. Ushbu maqolada o‘qish jarayoni, unga yangicha yondashuv – tez o‘qish tushunchasi yoritilgan bo‘lib, unda o‘qish jarayonining samarasini oshirish haqida ma’lumotlar berilgan. Undan tashqari tez o‘qishning bugungi kundagi ahamiyati haqida ba’zi tafsilotlar ham bayon qilingan.

Abstract

Man always strives for innovation and creates innovation through his knowledge. The most basic and effective way to acquire new knowledge is reading. But did you know that there are ways of reading that you and I do not know about? Of course there is. But unfortunately, many people do not know about it. This article describes the reading process, a new approach to it - the concept of speed reading, and provides information on increasing the effectiveness of the reading process. In addition, some details about the importance of speed reading today are given.

Аннотация

Человек всегда стремится к инновациям и создает инновации посредством своих знаний. Самый простой и эффективный способ получения новых знаний — это чтение. Но знаете ли вы, что есть способы чтения, о которых мы с вами не знаем? Есть конечно. Но, к сожалению, многие об этом не знают. В данной статье описывается процесс чтения, новый подход к нему - концепция скорочтения, а также приводится информация по повышению эффективности процесса чтения. Кроме того, приводятся некоторые подробности о важности скорочтения на сегодняшний день.

Kalit so‘zlar: *an’anaviy o‘qish, tez o‘qish va uqish, samarali o‘qish, regressiya, matnnining o‘zlashtirilishi, o‘qish mexanizmi, ma’lumotni qabul qilish kanallari, o‘qishning asosidagi psixologik va fiziologik jarayonlar.*

Ключевые слова: *традиционное чтение, скорочтение и понимание, результативное чтение, регрессия, усвоение текста, механизм чтения, каналы приема информации, психологические и физиологические процессы, лежащие в основе чтения.*

Key words*: traditional reading, speed reading and comprehension, effective reading, regression, text assimilation, reading mechanism, information reception channels, psychological and physiological processes underlying reading.*

KIRISH

Yozuv – insoniyatning eng buyuk kashfiyotlaridan biri hisoblanadi. Biroq, olti ming yillar avval yozuv kashf etilganidan to hozirga qadar insonlar o‘qish tezligining yuqori ko‘rsatkichi deyarli o‘zgarmagan. Ya’ni, inson o‘qish tezligini o‘zining gapirish tezligidan oshirishga harakat qilmagan. Bunga sabab bo‘lgan omillardan biri ta’lim tizimimizda qo‘llanib kelayotgan an’anaviy o‘qish usuliga o‘ta ko‘nikib ketganligimizdir. Insonlar asrlar davomida o‘qishgan va hozirga qadar o‘qib kelmoqda. Shuni ham unutmslik kerakki, biz hozir axborot asrida yashayapmiz. Zamon bilan hamnafas bo‘lish, yangiliklardan boxabar bo‘lib borish, shuningdek ilmiy faoliyatda ma’lum bir yutuqlarga erishishimiz uchun o‘qib o‘zlashtirib borishimiz zarur bo‘lgan bilimlar, ma’lumotlar hajmi kundan-kun ko‘payib boryapti desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Quyida keltiriladigan statistik(YuNYeSKO) ma’lumotlarga e’tibor bersangiz, tez o‘qish va o‘qilganlarni uqish masalasi qanchalik dolzarb ekanligiga o‘zingiz amin bo‘lasiz:

• oxirgi ikki asrda yer yuzi aholisi uch baravarga ortgan bo‘lsa, nashr etilayotgan kitoblarning soni esa 800 martadan oshib ketgan;

• 1975-1990 yillarda ilmiy axborotlar va ixtirolar hajmi butun tarix davomida fan yaratganidan ochiqchasiga ortib ketgan;

• Yer yuzida qochondir ishlagan yoki ishlayotgan olimlarning 90 foizi bizning zamondoshlarimizdir;

TARIX

• 1990 yilda dunyoda har daqiqada 3000 sahifa ilmiy-texnikaviy axborotlar bosmadan chiqarilgan;

• 1990 yilda jahonda yuz mingta jurnallar bosmadan chiqarilgan bo‘lsa, 2000 yilga kelib bu ko‘rsatgich bir millionga yetgan;

• Tasdiqlanishicha, bizning zamondoshlarimiz bor-yo‘g‘i ilmiy axborotlardan xabardor bo‘lib borishi uchungina bir yilda butun umri davomida o‘qiganlaricha o‘qishi lozim bo‘ladi.

Yuqoridagi statistikadan ham ko‘rinib turibdiki, XXI asrga kelib, tez o‘qish va uqish ilmidan ko‘ra zarurroq bilimning o‘zi yo‘qligi hech birimizda shubha uyg‘otmaydi.

ADABIYORLAR TAHLILI VA METODLAR

Ushbu maqolani yozishda tez o‘qishga doir bo‘lgan rus mualliflari tomonidan yozilgan adabiyotlardan, shuningdek, bu mavzuga bag‘ishlangan o‘zbek tilida chop etilgan yagona kitob hisoblanmish Madaminov Ikromjon Shermamatovichning “Tez o‘qish va uqish san’ati (nazariyasi va amaliyoti)” nomli kitobidan foydalanildi.

Aslida tez o‘qishni o‘rganishga oid ma’lumotlar Prinston universiteti o‘qituvchisi Ebbi Marks-Bil, shuningdek V.Pekelis, A.Shilin, O.Kozlovskiy, P.Kamp, N.Greys, Djon Uitch va boshqa ko‘plab shu soha mutaxasisslari tomonidan yozilgan kitoblarda bayon etilgan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, tez o‘qish bu insoniyat uchun o‘zlashtirilgan bilim hisoblanadi, uni o‘rganish kerak. Tez o‘qish deganda faqat o‘qish emas, balki o‘qish jarayonini tashkillashtirish va o‘qilgan ma’lumotlarni o‘zlashtirishni o‘rganish ham tushuniladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

95% insonlar juda sekin, ya’ni daqiqasiga 180-220 tadan so‘z o‘qiy oladi. Bunda, bir varaqni o‘qishga 1,5-2 daqiqa vaqt sarflanadi.

- Yuqori sinf o‘quvchilarining o‘qish tezligi o‘rtacha daqiqasiga 90-100 ta, studentlarniki 120-180 ta, oliy ma’lumotli mutaxassislarniki 200-250 ta so‘zni tashkil qiladi, bunda o‘zlashtirish koeffitsenti 20-60% atrofida bo‘ladi.

- An’anaviy o‘qishda uqish koeffitsiyenti 60% ni, noan’anaviy ya’ni tez o‘qishda 80% ni tashkil qiladi.

- O‘rtacha tezlikda o‘quvchining ko‘zi har bir qatorda 12-16 marta to‘xtalsa, tez o‘quvchining ko‘zi 2-4 marta to‘xtaydi.

- An’anaviy usulda o‘quvchining ko‘zi bir qarashda 10 ta belgini, ya’ni 1,5-2 ta so‘zni qamrab olsa, tez o‘quvchining ko‘zi 200-500 belgini, 33-83 ta so‘zni, bir necha qatorni qamray oladi.

- Tez o‘qiganda sekin o‘qiganga nisbatan ko‘z kamroq charchaydi.

- An’anaviy o‘qish vaqtining 1/6 qismi ko‘zning regressiya ya’ni, beixtiyor orqaga qaytishiga sarflanadi.

Ushbu ma’lumotlarni bejiz keltirmadik. ***Tez o‘qish masalasi hozirga kelib dunyoda eng dolzarb masalaga aylangan***. Buning isboti sifatida, jahonning ko‘plab mamlakatlarida bunday o‘qishni o‘rgatish bilan shug‘ullanuvchi turli o‘quv kurslari, markazlar va maktablar tashkil qilinib, faoliyat yuritmoqda. Yaqin qo‘shnilarimiz bo‘lgan Rossiya, Ukraina, Belorusiya, Qozog‘iston va Ozarbayjon kabi davlatlarda ham bunday o‘quv markazlari mavjud.

Hozirga kelib tez o‘qishning -***jadal o‘qish, dinamik o‘qish, samarali o‘qish, tez-rejimli o‘qish, faol o‘qish, fotoo‘qish, diogonal bo‘ylab o‘qish, integral o‘qish, o‘zgaruvchan o‘qish, skanerli o‘qish va hatto sportcha o‘qish***kabi ko‘plab sinonimlarini vujudga kelganligi tez va jadal o‘qishni o‘rganish masalasi insonlar hayotiga qanchalik chuqur kirib borayotganligidan dalolat beradi.

Nima uchun o‘qishning bunday usullariga katta ehtiyoj sezilayotganini tushunayotganinggizga aminmiz. Ha, topdingiz, albatta, hammamiz uchun dunyoda bebaho bo‘lgan, oltindan ham qimmat bo‘lgan narsa bu – **VAQT**.

Vaqt insonlarga har doim yetishmaydigan oliy ne’mat bo‘lib, undan samarali foydalanish, oz fursat ichida ko‘proq bilimga ega bo‘lish, miya faoliyatini tezlashtirish barchamizning eng ezgu orzuimizdir. Bunga erishishning yagona yo‘li bor, u ham bo‘lsa - bu **tez o‘qish va uqishni o‘rganishdir.**

Jadal yoki tez o‘qish bir ma’noni anglatib, unga turlicha tariflar berilgan, jumladan:

Tez o‘qish – bu o‘qishning noananaviy usullarni qo‘llash orqali matnni yalpi o‘qib, o‘qilganlarni to‘liq va sifatli o‘zlashtirishni ya’ni, uqishni ta’minlashdir. Tez o‘qish – bu minimal darajada kam vaqt va kuch saflagan holda materialni yuqori tezlikda o‘qib, o‘qilganlarni maksimal


darajada uqish san'atidir. Tez yoki jadal o'qish – bu o'qishni maxsus usullaridan foydalangan holda insonni matndagi ma'lumotlarni tez uqa olish qobiliyatidir. Ko'pchilik sekin o'qishga odatlangan insonlar sekin o'qiganda matnni yaxshi tushunishlarini, tez o'qiganda esa matnni tushuna olmasliklarini ya'ni, uqmasliklarini aytishadi. Biroq, **bunday kishilar o'qiyotgan abzatsni oxiriga yetib kelganida, abzatsning boshlanishini esdan chiqarib qo'yganliklarini tan olishni xohlashmaydi**. Inson miyasining ishlash tezligi uning o'qish tezligi bilan uzviy bog'liq ekanligi hozirda isbotlangan. Bu degani **tez o'quvchilarning miyasi tez, sekin o'quvchilarniki esa sekin ishlaydi**, xuddi tez va sekin gapiruvchilar singari. Bu aksioma desak ham adashmagan bo'lamiz.

Samarali o'qish – bu tez o'qish va uqish imkoniyatining yuqoriligida, mavjud egallagan bilimlarga tayangan holda yangi bilimlarni oson o'zlashtirishda namoyon bo'ladi.

An'anaviy o'qish usulida o'quvchi bitta daraxtni ko'rsa, jadal o'qiganda u o'rmonni ko'radi. Ya'ni, an'anaviy o'qish usulida o'quvchi manzarani qisman ko'rsa, noan'anaviy o'qishda esa butunligicha ko'radi.

O'qish samarasini oshirish uchun o'qish jarayonini tasavvur qilish kerak. O'qish mexanizmidagi ayrim holatlar noaniq qolayotgan bo'lsada, umumiy holda uni shunday tasavvur etish mumkin (1-rasm).

1- rasm



Ma'lumotni biz ***ko'rish, eshitish va talaffuz*** kanallarimiz orqali qabul qilamiz. Shulardan asosiy anglash kanali bu – ko'rishdir. Odam ko'zi bir zumda grafik axborotning butun bir uyg'unligini ilg'ab olishi mumkin.

Ko'z olmasi o'n ikkita baquvvat muskullari yordamida soniyaning bir ulushida harakatlanadi, bunda qorachiq keyingi ma'lumotni ilg'ab oladi. E'tibor bering, o'qish jarayonida ko'zlar qatorda sakrab-sakrab harakatlanadi va har bir sakrashdan so'ng to'xtaydi.

Eshitish va talaffuz kabi ma'lumot qabul qilish kanallari o'qishni bilmaydigan, o'qishni yaxshi bilmaydigan yoki o'qishni o'rganayotgan odamlarda ko'proq va yaxshiroq rivojlangan bo'ladi. E'tibor bergan bo'lsangiz, yosh bolalar o'qish paytida matnni ovoz chiqarib o'qiydi. Bunda o'qish tezligi daqiqasiga 150 ta so'zdan oshmaydi. Bunday ovoz chiqarib o'qish usuli ko'pchilik kattalarda ham uchraydi. Tahlillar ko'rsatishicha, nisbatan tez o'qiydigan insonlar matnni ichlarida o'qishadi.

Ko'rish kanali orqali inson o'qish jarayonida, qolgan ikkita kanalga nisbatan 100000 marta ko'proq ma'lumot oladi. Shunday bo'lgach, qo'shimcha qabul qilish kanallari rolini pasaytirish orqaligina o'qish tezligini oshirish mumkin.

Qabul qilish kanallari orqali o'tib, ma'lumot qayta ishlanadi. Bunda o'qilayotgan mavzu haqida miyadagi eski ma'lumotlar ham yuzaga chiqadi. Bu bosqichda yangi kelgan ma'lumot bilan miyadagi eski ma'lumot o'rtasida mantiqiy ketma-ketlikdagi bog'lanish yuzaga keladi. Aynan shular olingan ma'lumotlarni miyada mustahkam saqlanib qolishiga yordam beradi.

Ta’kidlash joizki, o‘qish jarayonida bosh miya o‘qilgan matnni qayta ishlash va eslab qolish bilan birga ko‘z, tomoq, til, lab va h.k.larni ham boshqaradi.

An’anaviy o‘qish usuli uchala kanalning bir vaqtda ishlashini muvofiqlashtiradi. Bu maktab davridan qolgan odat dastlab grafik ma’lumotni qabul qilishga yordam bergan bo‘lsada, keyinchalik esa tormozga aylanib, xalaqit bera boshlaydi.

XULOSA

Umuman o‘qish jarayoni bu – matnni varaqlash, o‘qishni davom ettirish, eslab qolish, so‘nggi gap va satrni qayta o‘qish orqali ma’lumotni qabul qilish va uni qayta ishlashdir.

Shunday qilib, o‘qishning asosida psixologik va fiziologik jarayonlar yotadi.

Psixologik jarayonlarga – ma’lumotlarni mantiqiy qayta ishlash ketma-ketligi, shakllangan obrazlarni eslab qolish va keyingi harakatlar uchun qaror qabul qilish kiradi. Bu jarayonlar bugungi kunda to‘liq o‘rganilmagan, chunki uning ko‘p qismi ong osti qismida ro‘y beradiki, bu holatlarni o‘rganishni imkoniyati yo‘q. Biroq, bu ularni rivojlantirish va tartibga solinishiga xalaqit bermaydi.

Fiziologik jarayonlar – bu barcha tahlil kanallarining ishini, ya’ni grafik ma’lumotlarni bosh miya qobig‘iga qabul qilish va jo‘natishni o‘z ichiga oladi. Bu yerda shakllangan dinamik tahlil to‘g‘rilab turiladi.

Demak, o‘qish jarayonini samarasini oshirishda, har ikkala jihatlarni ham rivojlantirishga e’tibor berish kerak bo‘ladi.

Shunday qilib, jadal va tez o‘qish - bu faol yaratuvchi, tushunish jarayoni bo‘lib, bu jarayonda o‘quvchi faktlarni analiz qiladi, ba’zi tushunchalarni mazmun va mohiyatini anglab yetadi hamda o‘zida yangi bilimlar poydevorini quradi.

Aynan shuning uchun ham tez o‘qiganda o‘quvchi sekin o‘qiganga nisbatan matnni yanada yuqori darajada o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

ADABIYOTLAR

1. Madaminov I. Tez o‘qish va uqish san’ati (nazariyasi va amaliyoti)(The art of speed reading and comprohension (theory and practice). F.: 2019. 144 b.
2. Виктор Пекелис. Твои возможности, человек. (Your abilities man) Москва. 1975. 272 с.
3. О.В.Козловский. Скорочтение (Speed reading). Донецк. 2004. 290 с.
4. Питер Камп. Скорочтение, как запоминать больше, читая в 8 раз быстрее (Speed reading, how to remember more by reading 8 times faster). Москва. 2015. 320 с.